MAQSUD SHAYXZODA IJODI: ILMIY SALOHIYAT VA QOMUSIY BILIM NAMOYONASI

Musurmonova Mohichehra Baxtiyor qizi

Toshkent Davlat Transport Universiteti

2-bosqich talabasi

E:mail:musurmonovamohichehra11@gmail.com

Tel:+99893-357-94-34

Annotatsiya: maqolada Maqsud Shayxzoda asarlari, O‘zbekistonga bo‘lgan muxabbati, vatan, vatanparvarlik, shuningdek, shoirning tarixiy asarlari haqidagi shaxsiy yondoshuvlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: she’riyat, meros, inson obrazi, inson falsafasi, vatan,vatanparvarlik, immunitet, mafkura, xotira.

The article describes the works of Maqsud Shaykhzoda, his love for Uzbekistan, homeland, patriotism, as well as his personal views on the historical works of the poet.

Keywords: poetry, heritage, human image, human philosophy, homeland, patriotism, immunity, ideology, memory.

Ulkan so‘z san’atkorlarining qadru qimmati umrzoqligi, badiiy mahoratdagi ustozlik darajasini o‘lchaydigan eng haqqoniy va ishonchli mezon zamon va kitobxon hisoblanar ekan, u holda bunday sermashaqqat sinovdan sharaf bilan chiqolgan nodir siymolar qatorida Maqsud Ma’sumbek o‘g‘li Shayxzodaning tabarruk ismini ham faxr va mehr bilan e’zozlab, yodga olamiz. Ustod shoir va dramaturg, adabiyotshunos olim va tanqidchi, publitsist va tarjimon, noshir va murabbiy sifatida faol hayot kechirdi. Atoqli adib bu sohalarning har birida o‘chmas izlar qoldirdi. Maqsud Shayhzoda ilmi daryo alloma, qomusiy bilim sohibi, donishmand inson edi. U xalqimizning yozma va og‘zaki adabiyoti, jahon adabiyoti, rus va qardosh xalqlar adabiyotlari haqida teran,

o‘rnak bo‘larli tadqiqotlar yaratdi, xalq dostonlarini nashrga tayyorlash ishlarida faol qatnashdi, o‘zi ham folklor materiallari asosida o‘lmas asarlar yozdi. Ayniqsa, olimning Alisher Navoiy ijodiga doir tadqiqotlari navoiyshunoslikdagina emas, balki boy klassik merosimizni o‘rganishda ham yangi bosqich bo‘ldi. Ulug‘ inson va san’atkor Maqsud Shayhzoda tom ma’nosi bilan ikki xalqning – o‘zbek va ozarbayjon xalqlarining asl farzandi edi. Biri unga hayot berdi, ikkinchisi kamolotga yetkazdi. Ustod o‘zbek xalqini, O‘zbekistonni jon – dilidan ulkan muhabbat bilan sevardi, ardoqlardi. O‘zbekiston xalq yozuvchisi Asqad Muxtorda saqlanib qolgan bir maktubida u shunday samimiy so‘zlar yozgan ekan: “Men bu o‘lkaga, uning odamlariga o‘la o‘lguncha qarzdorman. Bordi-yu bir mo‘jiza yuz berib, bir emas, to‘rt umr yashasam, to‘rtovini ham shu ona yurtimga bag‘ishlab, kecha-kunduz madhini aytardim va shunda ham uning menga bag‘ishlagan sahiy mehri uchun qarzimning mingdan birini ham uzolmagan bo‘lardim. Men bu yerda ma’naviy kamol topdim. Shu yerda olamni tanidim, hayotni, insonni, she’riyatni sevdim...” Maqsud Shayhzodaning o‘zi ham umr bo‘yi yuksaklikka intilib yashadi, ulkan san’atkor qalbida ezgu tuyg‘ular bilan ezgu ishlarni amalga oshirdi – insonga mehr muhabbat ruhi ufurgan o‘lmas asarlar yaratdi, xalqiga sidqidildan xizmat qildi. Shu tufayli u hamisha vatandoshlari safidadir.

O‘zbek adabiyotining atoqli namoyandalaridan biri **Maqsud Shayxzoda** 1908 yil 25 oktabrda Ozarboyjonning Oqdosh shahrida tavallud topgan. Shoir 1928 yilda Toshkentga kelib, umrining oxiriga qadar poytaxtda yashab, ijod qilgan. U bu shaharni ikkinchi vatani deb bilgan. Shayxzoda «O‘n she’r», «Undoshlarim», «Uchinchi kitob», «Kurash nechun», «Jang va qo‘shiq», «Kapitan Gastello», «Ko‘ngil deydiki…» kabi she’riy to‘plamlari, «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy dramasi va boshqa qator publitsistik asarlarni yaratdi Maqsud Shayxzoda 1944 yilda, ayni ikkinchi jahon urushi payti, keyinchalik boshiga ko‘p g‘avg‘olar (o‘zbek xalqining “feodal o‘tmishini ideallashtirish”da ayblanib, hibsga olingan) kelishiga sababchi bo‘lgan **«Jaloliddin Manguberdi»** tarixiy dramasini nega yozgan edi?Taniqli adabiyotshunos **Naim Karimov**ning fikriga ko‘ra, urush yillarida hokimiyat vakillari yozuvchilarni o‘tmishdagi mashhur sarkardalar haqida asar yozishga da’vat etishgan. Ular bunday asarlar xalq va armiyani o‘tmishdagi jasur sarkardalardan, xalq qahramonlaridan ibrat olishga da’vat etishi, ularni bu mashhur shaxslarning vatanparvarlik fazilatlari ruhida

tarbiyalashi mumkin degan qarashda bo‘lishgan. Shunday ijodiy buyurtmani olgan Shayxzoda o‘zbek xalqining jasur farzandlaridan biri Jaloliddin Manguberdi haqida sahna asari yozishga kirishgan. [Naim Karimov 2009:259].Respublikaning o‘sha paytlardagi rahbari **Usmon Yusupov** shoirning asarini tezroq yakunlashi uchun uni yurtimizning xushmanzara maksanlaridan biri Farg‘ona viloyatiga yuboradi. “Boshqa ishlar bilan xayolingni bo‘lma. Xalq sendan Jaloliddin to‘g‘risidagi asarni intizorlik bilan kutmoqda. Vodilga borib, uni tezroq tugallab qayt!” deya rahbar shoirni ruhlantiradi. Shunday qilib, Maqsud Shayxzoda rafiqasi Sakinaxonim bilan Farg‘onaga borib, olti oy ichida tarixiy dramani yozadi. [www ziyouz.com]

Oradan ko‘p yillar o‘tsa ham Shayxzoda asarlari o‘z kuch-qudratini namoyon etib kelmoqda. Yaqinda shoir Botir Ergashevning aynan "Jaloliddin Manguberdi" dramasidagi "Ulug‘vor niyatlarga kor qilmas ajal, Kim yurtdan yovni quvsa, mendirman o‘shal" misrasidan ilhomlanib yozgan she’ri Ozodbek Nazarbekov tomonidan maromiga yetkazib kuylanishi va bu qo‘shiq xalqimiz ko‘nglidan chuqur o‘rin egallagani bunga yorqin misol. Asarda sulton Jaloliddinning oxirgi so‘zi sifatida quyidagi satrlar keltiriladi: Bir kun paydo bo‘laman shu yurt, shu yerda, Yurt shaydosi ko‘rinmas g‘urbatda – go‘rda.

Kim yurtdan yovni quvsa, mendurman o‘shal!

Ulug‘vor niyatlarga kor qilmas ajal

Ma’lumki, Mo‘g‘ul istilosi davrida Movaraunnahrda katta jasorat ko‘rsatgan Jaloliddin haqida Shayxzodaga qadar birorta badiiy asar yaratilmagan, sovet tarixchilarining ilmiy asarlarida esa uning na nomi, na jangovar jasorati iliq so‘zlar bilan tilga olingan edi. Shunga qaramay, Shayxzoda bu ajoyib siymo haqidagi Shahobuddin Muhammad Nasaviyning “Siyrat as-sulton Jaloliddin Mangburni” va Alouddin Atomalik Juvayniyning “Tarixi jahongushoyi Juvayniy” kabi asarlarini o‘qib, shu asarlarda tasvirlangan tarixiy davr voqealari asosida o‘z asarini yozishga ahd qildi. Jaloliddin mo‘g‘ullarning ashaddiy dushmani bo‘lganiga qaramay, Chingizxon uning dovyurakligi va sarkardalik mahoratiga tan berishga majbur bo‘ladi. Shayxzoda yetuk yozuvchi sifatida yoza boshlagan ilk sahna asariga ana shunday tarixiy shaxsni – mo‘g‘ul qo‘shinlariga g‘ulg‘ula solgan, g‘alaba yuz o‘girgan jang maydonlaridan ham omon eson chiqib ketgan Jaloliddinni qahramon qilib oladi. Fikrimizning yakuni

sifatida shuni ta’kidlashimiz joizki bugungi yoshlar dunyoqarashini shakllantirishda vatanga muxabbat, xissini yanada kuchaytirishda mutafakkir ijodini, uning asarlarini o‘rganish,shuningdek, globallashuv jarayonida turli mafkuraviy tajovvuzlarga qarshi mafkuraviy immunitetimizni shakllantirishda dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Naim Karimov. Maqsud Shayxzoda (Ma’rifiy-biografik roman).- Toshkent,”Sharq”, 2009 yil (359 b.).
2. www ziyouz.com